



UDK 398.23 (=512.133) (=161.1)

**G'ayratbek XOLBUTAYEV,**  
PhD, dotsent, Qo'qon universiteti Andijon filiali  
E-mail: [gayratbek19912705@gmail.com](mailto:gayratbek19912705@gmail.com)

ADU professori, f.f.d. S.Mirzayeva taqrizi asosida

## POETICAL AND THEMATIC FEATURES OF UZBEKISTAN AND RUSSIAN JOKE

Annotation

This article provides a comparative analysis of the anecdote genre in Uzbek and Russian folklore, focusing on its structural framework and thematic classification. The research examines social, everyday, and political types of anecdotes, their connection to national mentality, and the mechanisms of creating an unexpected twist (the point). Based on the theoretical views of V.Ya. Propp and other folklorists, similarities and differences in the anecdotes of both nations are highlighted.

**Keywords:** anecdote, folklore, comparative analysis, point (punchline).

## ПОЭТИЧЕСКИЕ И ТЕМАТИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УЗБЕКСКИХ И РУССКИХ АНЕКДОТОВ

Аннотация

В данной статье проводится сравнительный анализ жанра анекдота в узбекском и русском фольклоре, его структурного строения и тематической классификации. В исследовании рассматриваются социальные, бытовые и политические виды анекдотов, их связь с национальным менталитетом и механизмы создания эффекта неожиданности (пунта). На основе теоретических взглядов В.Я. Проппа и других фольклористов освещаются сходства и различия в анекдотах двух народов.

**Ключевые слова:** анекдот, фольклор, сравнительный анализ, пунта.

## O'ZBEK VA RUS LATIFALARINING POETIK VA TEMATIK XUSUSIYATLARI

Аннотация

Ushbu maqolada latifa janrining o'zbek va rus folkloridagi o'rni, uning strukturaviy tuzilishi va tematik tasnifi qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda latifalarning ijtimoiy, maishiy va siyosiy turlari, ularning milliy mentalitet bilan bog'liqligi hamda kutilmagan yakun (puant) hosil qilish mexanizmlari o'rganilgan. V.Ya.Propp va boshqa folklorshunoslarning nazariy qarashlari asosida har ikki xalq latifalaridagi o'xshash va farqli jihatlar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** latifa, folklor, qiyosiy tahlil, puant.

**Kirish (Introduction).** Latifa xalq og'zaki ijodining eng harakatchan janrlaridan biri bo'lib, u jamiyatdagi hodisalarga kulgi vositasida munosabat bildiradi. Maqolaning maqsadi – o'zbek va rus latifalarining poetik va tematik xususiyatlarini qiyoslash orqali har bir xalqning milliy-madaniy tafakkurini ochib berishdir. Latifa (anekdot) janri xalq og'zaki ijodining eng faol, harakatchan va funksional jihatdan serqirra janrlaridan biri hisoblanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlarga, insoniy munosabatlardagi ziddiyatlarga va kundalik maishiy muammolarga eng tez munosabat bildiruvchi ushbu janr milliy mentalitetning ko'zgesi vazifasini o'taydi. Bugungi globalashuv davrida turli xalqlar madaniyati o'rtasidagi muloqot kuchayib borayotgan bir paytda, latifa janrini qiyosiy o'rganish har bir xalqning o'ziga xos dunyoqarashi, qadriyatlarini va hayotiy falsafasini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Latifa janrining nazariy asoslari va kulgi tabiati jahon folklorshunosligida V.Ya.Propp, Yu.M. Sokolov va B.N. Putilov kabi olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan [1, 2]. Xususan, V.Ya. Propp kulgi hodisasini kutilgan natija bilan real natija o'rtasidagi ziddiyat sifatida baholab, uning strukturaviy modellarini ishlab chiqqan [3]. Biroq, o'zbek va rus latifalarini aynan tematik va strukturaviy jihatdan qiyosiy-tipologik tahlil qilish, ulardagi milliy kolorit va janriy o'zgarishlarni aniqlash hamon dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Latifa, ya'ni anekdot janri xalq og'zaki ijodining eng faol, harakatchan va funksional jihatdan serqirra janrlaridan biri hisoblanadi. U qisqa syujetga egaligi, voqeaning kutilmagan yakun bilan tugallanishi hamda komik ta'sir hosil qilishi bilan

ajralib turadi. Latifa orqali xalq ijtimoiy hayotda yuz berayotgan turli hodisa va munosabatlarni kulgi vositasida badiiy ifodalaydi.

**- Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review)**

XX asr oxiri hamda XXI asr boshlariga kelib, xalq kulgisi fenomeni an'anaviy folklorshunoslik inkubatsiyasidan chiqib, ijtimoiy-gumanitar fanlar kesishmasidagi multidissiplinar tadqiqot obyektiga aylandi. Zamonaviy metodologik yondashuvlarda ushbu hodisaning falsafiy, sotsial, psixologik, estetik va lingvokulturolojik parametrlari tizimli paradigmalarda o'rganila boshlandi.

Mavjud ilmiy adabiyotlar konseptual yo'nalishlariga ko'ra quyidagicha tahlil qilingan:

Kulgining ijtimoiy-funksional mohiyati A.V.Dmitriyev tomonidan sotsiologik nuqtai nazardan asoslangan bo'lsa, uning psixofiziologik tabiati va emotsional determinatsiyasi L.S.Vigotskiy, A.N.Luk, P.V.Simonov hamda P.M.Yershovlarning fundamental ishlarida tahlil qilingan.

Kulgining eksiztensial-falsafiy mazmuni L.V.Karasev, diskursiv-siyosiy tabiati V.V.Razuvayev, struktur-lingvistik va lingvokulturolojik xususiyatlari esa V.Z.Sannikov hamda X.X.Do'smatov tadqiqotlarida o'z ifodasini topgan.

Badiiy matn tarkibida kulgining funksional-poetik o'rni P.N.Berkov, V.I.Demin, A.Ye.Kunilskiy, A.P.Moskovskiy, D.P.Nikolayev, L.A.Spiridonova, Yu.V.Stennik, M.N.Chernyavskiy tomonidan, uni madaniyat tarixining ajralmas qismi va sotsiomadaniy fenomen sifatida o'rganish esa

S.S.Averinsev, D.S.Lixachev, A.M.Panchenko, N.V.Ponirko ilmiy maktablarida amalga oshirilgan.

Komediya tabiati N.M.Fed va V.N.Yarxo, satira poetikasi V.I.Adrianova-Perets va L.A.Plotkin, parodiya tabiati Yu.M.Tinyanov, V.L.Novikov, O.M.Freydenberg, latifa janrining narrativ strukturasi esa Ye.Ya.Kurganov, V.P.Rudnev, Ye.Ya.Shmeleva, A.D.Shmelevlar tomonidan tadqiq etilgan [4].

Mazkur tadqiqotlarda kulgining ijtimoiy-regulyativ funksiyalari, inson ruhiyatiga antropologik ta'siri, intellektual va aqliy faoliyat mahsuli sifatidagi epistemologik tabiati ilmiy asoslangan. Bu esa xalq kulgisini shunchaki sof estetik kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy ong shakli, madaniy xotira kodi hamda milliy mentalitet va tafakkurning o'ziga xos namoyon bo'lish shakli deb baholashga imkon beradi.

#### - Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Tadqiqotda qiyosiy-tiplogik tahlil, strukturaviy yondashuv va tematik tasniflash metodlaridan foydalanilgan. Nazariy asos sifatida V.Ya.Propp, Yu.M.Sokolov va B.N.Putilovlarning kulgi tabiatiga oid qarashlari olingan.

#### - Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Turli xalqlar folklorida latifa janri umumiy tuzilish xususiyatlariga ega bo'lsa-da, uning mazmuni, obrazlar tizimi va bajaradigan vazifalari har bir xalqning milliy-madaniy tafakkuri bilan bog'liq holda farqlanadi. Shu jihatdan rus va o'zbek latifalarini qiyosiy o'rganishda V.Ya.Propp, Yu.M.Sokolov va B.N.Putilovning nazariy qarashlari muhim metodologik asos vazifasini bajaradi.

Latifa qisqa hajmli, bir epizod asosiga qurilgan, komik ta'sirga ega bo'lgan epik janrdir. Uning asosiy badiiy markazida kutilmagan burilish, ya'ni puant yotadi. V.Ya.Proppning fikricha, kulgi ko'pincha kutilgan natija bilan real natija o'rtasida yuzaga keladigan ziddiyat asosida shakllanadi [3]. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, rus va o'zbek latifalarida ham umumiy strukturaviy model mavjud bo'lib, u odatda quyidagi bosqichlardan tashkil topadi: vaziyat – kutilma – puant.

Biroq ushbu umumiy sxema har bir xalq folklorida o'ziga xos mazmun bilan to'ldiriladi. Ya'ni latifa janrining tashqi tuzilishi o'xshash bo'lsa-da, uning ichki mazmuni, kulgi manbai, obrazlar tizimi va ifoda usuli milliy mentalitet, ijtimoiy tajriba va madaniy qadriyatlar bilan belgilanadi.

Latifalarda quyidagi poetik vositalar keng qo'llaniladi:

1. Metafora. Kulgili vaziyatni kuchaytirish uchun ishlatiladi.
2. Ironiya. Aslida aytilayotgan fikrning teskari ma'nosini anglatadi.
3. Paradoks. Kutilmagan mantiqiy ziddiyat orqali kulgi hosil qiladi.

Latifa janriga mansub og'zaki asarlarni tematik jihatdan tasniflash jarayonida ularning tuzilishi, funksional vazifasi hamda qaysi madaniy kontekstga mansubligi masalalari ham o'z-o'zidan namoyon bo'ladi. Shu nuqtai nazardan o'zbek va rus latifalarini tematik mezon asosida quyidagi guruhlariga ajratib ko'rib chiqish mumkin.

Ijtimoiy latifalarda jamiyat hayotidagi turli muammo va ziddiyatlar ixcham, tipik obrazlar vositasida ifodalanadi. Bunday latifalarda ijtimoiy munosabatlar, odamlar orasidagi axloqiy muammolar, xushomadgo'ylik, laganbardorlik, adolatsizlik, tengsizlik kabi hodisalar kulgi orqali yoritiladi. Ularning asosiy vazifasi tinglovchini nafaqat kuldirish, balki o'ylantirish, hayotdagi ayrim kamchiliklarga tanqidiy nazar bilan qarashga undashdan iboratdir.

Masalan, "Bir podshoh she'r yozib saroy ahliga o'qib beribdi. Hamma maqtabdi. Faqat Afandi jim turganmish. Podshoh:

– Sen nima deysan?, - desa Afandi:

– Bunaqa rasvo she'rni eshitmaganman, - debdi. Podshohni jahli chiqib, zindonga tashlabdi. Bir haftadan keyin Afandini shohni yoniga olib borishibti. Podsho yangi she'rni o'qib berib,

– Qalay chiqibdi?, - desa, Afandi indamasdan o'g'irilib ketayotganmish. Podshoh:

– Qayoqqa?, - desa, Afandi:

– Zindon qayerda edi, - dermish" [6].

Mazkur latifada asosiy ijtimoiy muammo – so'z erkinligi masalasi badiiy tarzda yoritilgan. Podshohning yomon she'ri shunchaki badiiy matn emas, balki noto'g'ri fikr, nomaqbul qaror yoki amaldorona xohish ramzi sifatida talqin qilinadi. Saroy ahli esa haqiqatni aytishdan qo'rqadigan, shaxsiy manfaatini ko'zlab yolg'on maqtovga beriladigan obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Afandi obrazi orqali esa xalq donoligi, haqiqatni ko'ra olish va uni jasorat bilan aytish xususiyati ifodalanadi.

Rus xalq latifalarida ham ijtimoiy-siyosiy mazmun kuchli ifodalanadi. Masalan, Vladimirning jannat va do'zaxni tanlash haqidagi latifasida saylovoldi va'dalari, siyosatchilarning xalqni aldashi kulgi vositasida tanqid qilinadi. Dastlab do'zax go'zal, qulay va farovon joy sifatida ko'rsatiladi. Vladimir aldovga ishonib, do'zaxni tanlaydi. Ammo tanlovdan keyin u haqiqiy manzarani – axlatga to'la joyni, qiynalayotgan odamlarni ko'radi. Shaytonning "bu saylovoldi kampaniyasi edi, siz esa bizga ovoz berdingiz" mazmunidagi javobi latifaning asosiy puantini tashkil etadi.

Ushbu latifada siyosiy aldov, saylovoldi targ'iboti, rahbarlarning xalq ishonchidan foydalanishi kabi muammolar kulgi vositasida ochib berilgan. Latifaning g'oyaviy mazmuni shundan iboratki, odamlar yolg'on va'dalarga ishonib, o'zlari uchun zararli tanlov qiladilar. Siyosatchilar esa hokimiyatga erishgach, xalq manfaatidan uzoqlashib, shaxsiy manfaat yo'lida harakat qiladilar.

Maishiy latifalarda kundalik hayot, oila, qo'shnichilik, er-xotin munosabatlari, ro'zg'or, to'y, ta'ziya, bozor, transport va boshqa oddiy turmush holatlari tasvirlanadi. Bunday latifalarning asosiy maqsadi tinglovchiga kulgi ulashish, uning kayfiyatini ko'tarish va hayotdagi oddiy vaziyatlarni kulgili talqin qilishdan iboratdir.

Masalan, Afandining qo'shnisi kelib, xotinining vafot etgani va janozaga chaqirgani haqidagi latifada kulgi Afandining kutilmagan javobi orqali yuzaga keladi. Xotini qo'shning musibatidan ta'sirlanib yig'laganda, Afandi o'zining xijolatda ekanini aytadi. Xotini buning sababini so'raganida, Afandi qo'shnisi uni bir necha bor xotinining janozasiga chaqirganini, o'zi esa hali biror marta uni xotinining janozasiga taklif qilmaganini aytadi.

Qo'shnimiz falonchi, -deb tanavvul qilaveribdi. Xotini: Nimaga kelibdi?-deb so'rabdi. Shunda Afandi:

Ayolini olamdan o'tibdi, peshinda janozasiga aytib ketdi, -debdi. Xotini:

Voy sho'rlik ey!-dya ko'zi yoshlanibdi. Afandi xotini yupatib:

Yig'lama onasi, men ham rosa xijolatman, -debdi. Afandining xotini:

Siz nega xijolat bo'lasiz?-desa Afandi:

Qo'shnim bechor shu yilda uch marta "Ayolim o'lib qoldi, janozaga chiqing", -deb taklif qildi. Men esa, uni biror marta xotinimni janozasiga taklif qilmadim, -deyarmish" [7].

Mazkur latifada maishiy vaziyat – qo'shnichilik munosabatlari va ta'ziya marosimi kulgi manbaiga aylantirilgan. O'zbek xalq hayotida o'zaro chaqiriq, marosimlarda qatnashish, "bor tovog'im, kel tovog'im" tamoyili qadriyat sifatida shakllangan. Afandining javobi aynan shu qadriyatga asoslangan holda kutilmagan komik ma'no hosil qiladi.

Yana bir latifada Afandi to'yda o'zini ochko'z tutgan savdogarni ko'rib qoladi. Savdogar dasturxonadagi qand-qurslarni cho'ntagiga solayotganini ko'rgan Afandi uning cho'ntagiga choy quyadi. Savdogar buning sababini so'raganda, Afandi "cho'ntagingiz qand-qursni ko'p yeb chanqab qolgandir" deb javob beradi.

Bu latifada ochko'zlik, nazari pastlik, to'y va marosimlarda o'zini odobsiz tutish kabi maishiy illatlar kulgi vositasida tanqid qilinadi. Xalq bunday xulq-atvorni to'g'ridan-to'g'ri qoralash o'rimga, obrazli badiiy ifoda orqali fosh etadi. Natijada latifa bir vaqtning o'zida ham kuldiradi, ham tarbiyaviy vazifani bajaradi.

Rus latifalarida ham maishiy hayotdagi oddiy vaziyatlar komik talqin qilinadi. Masalan, ruslarning o'zlarini chet elliklarga qaraganda aqlliyoq deb bilishi haqidagi latifada kompyuterga Windows o'rnatish, kranni tuzatish, karbyuratori ta'mirlash kabi holatlar kulgi manbai sifatida beriladi. Latifaning puanti shundaki, aslida bunday muammolar umuman bo'lmasligi kerakligini angelaydigan odamlar allaqachon chet elga ketgan bo'ladi. Bu yerda kulgi o'zini yuqori baholash va real hayotdagi kamchiliklar o'rtasidagi ziddiyatdan hosil bo'ladi.

Umuman, maishiy latifalar kundalik hayotdagi muammolarni sodda, tushunarli va kulgili shaklda ifodalaydi. Rus latifalarida ko'pincha keskin, qisqa va to'g'ridan-to'g'ri munosabat ustunlik qilsa, o'zbek latifalarida kichik syujet, batafsilroq voqea bayoni va obrazli ifoda ko'proq kuzatiladi. Har ikki xalq latifalarida esa oddiy odamlar bosh qahramon sifatida namoyon bo'ladi.

Siyosiy latifalarda hokimiyat, davlat tizimi, rahbarlar, qonunlar, saylov, korrupsiya va jamiyatdagi siyosiy muammolar hajviy ruhda talqin qilinadi. Bunday latifalarning asosiy maqsadi jamiyatdagi siyosiy ziddiyatlarni ochib berish,

1-jadval. Latifalar turlarining qiyosiy tavsifi

Belgi xususiyat	Ijtimoiy latifalar	Maishiy latifalar	Siyosiy latifalar
Mavzu	Jamiyat, ijtimoiy munosabatlar	Kundalik hayot, oila, ro'zg'or	Siyosat, hokimiyat, davlat tizimi
Maqsad	O'ylantirish, ijtimoiy muammoga e'tibor qaratish	Kuldirish, kayfiyatni ko'tarish	Tanqid qilish, siyosiy munosabat bildirish
Kulgi manbai	Ijtimoiy ziddiyatlar, inson xarakteridagi qarama-qarshiliklar	Oddiy hayotiy holatlar, kutilmagan javoblar	Absurd qarorlar, rahbarlar xatosi, ikkiyuzlamachilik
Xususiyati	Pand-nasihati, umumlashtiruvchi	Sodda, yengil, ommabop	O'tkir, tanqidiy, kuchli ta'sirli
Qahramonlar	Tipik obrazlar: boy, kambag'al, amaldor, oddiy xalq vakili	Odatiy odamlar, oila a'zolari, qo'shnilar	Amaldorlar, siyosatchilar, rahbarlar
Yo'nalish	Jamiyat muammolarini ko'rsatish	Ro'zg'or va oilaviy holatlarni ifodalash	Saylov, qonun, korrupsiya, hokimiyat muammolari
Uslub	Nisbatan batafsil, ma'naviy xulosa beruvchi	Qisqa, sodda, hayotiy	Qisqa, keskin, hajviy

Demak, ijtimoiy latifalar tinglovchini kuldirish bilan birga uni fikrlashga chorlaydi. Maishiy latifalar esa quvnoq kulgi orqali tinglovchining kayfiyatini ko'tarishga xizmat qiladi. Siyosiy latifalar jamiyatdagi keng ko'lamlı muammolarni tanqidiy ruhda yoritadi va kulgi vositasida ijtimoiy mulohaza uyg'otadi.

O'zbek va rus latifalarining tasnif mezonlari

O'zbek va rus latifalari xalq og'zaki ijodining muhim janrlaridan biri bo'lib, ular orqali har bir xalqning dunyoqarashi, qadriyatları, hayotga munosabati va yumorni qabul qilish usuli yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur latifalarni ilmiy jihatdan o'rganishda ularning tasnif mezonlari va tipologik xususiyatlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Birinchi asosiy mezon – mavzu, ya'ni tematika hisoblanadi. Shu jihatdan o'zbek va rus latifalari ijtimoiy, maishiy va siyosiy turlarga ajratiladi. Ijtimoiy latifalarda jamiyatdagi munosabatlar, tengsizlik, axloqiy muammolar aks

rahbarlar xatosi, ikkiyuzlamachilik, yolg'on va dalar yoki adolatsiz qarorlarni tanqid qilishdan iboratdir.

Siyosiy latifalarda kulgi ko'pincha absurd vaziyat, rahbarlarning noto'g'ri qarorlari, amaldorlarning xalqdan uzoqlashuvi yoki siyosiy tizimdagi ziddiyatlar orqali shakllanadi. Ular qisqa, o'tkir va kuchli ta'sirga ega bo'lishi bilan ajralib turadi.

Siyosiy latifalar faqat kuldirish uchun emas, balki tinglovchini jamiyatdagi jiddiy muammolar haqida o'ylashga undash uchun ham xizmat qiladi. Ular xalqning siyosiy voqelikka munosabatini bilvosita ifodalovchi og'zaki epik janr namunalari hisoblanadi.

Latifalarning tematik tasnifi

Ijtimoiy latifalarda jamiyatdagi munosabatlar, insonlar orasidagi xulq-atvor, ijtimoiy tengsizlik, odatlar va muammolar aks etadi. Bunday latifalarda jamiyatdagi kamchiliklar yumor orqali ko'rsatiladi va tinglovchi muayyan xulosaga olib kelinadi. Ularning kulgi manbai kutilmagan vaziyatlar, inson tabiatidagi ziddiyatlar va tipik obrazlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklardan iborat bo'ladi.

Maishiy latifalarda esa kundalik hayot, oila, qo'shnichilik, er-xotin munosabatlari, bozor va ro'zg'or muammolari tasvirlanadi. Ularning asosiy vazifasi oddiy hayotdagi kulgili vaziyatlarni ko'rsatish va tinglovchiga yengil kayfiyat baxsh etishdan iboratdir. Bu turdagi latifalarda kulgi xarakterlar to'qnashuvi, kutilmagan javob yoki oddiy vaziyatning g'ayrioddiy tus olishi orqali yuzaga keladi.

Siyosiy latifalarda esa hokimiyat, siyosiy tizim, rahbarlar, qonunlar, saylov va korrupsiya kabi mavzular hajviy-tanqidiy ruhda yoritiladi. Bunday latifalar ko'pincha jamiyatdagi dolzarb muammolarga nisbatan xalqning munosabatini aks ettiradi.

etsa, maishiy latifalarda oila, ro'zg'or va kundalik turmush holatlari ifodalanadi. Siyosiy latifalar esa hokimiyat, rahbarlar, davlat tizimi va siyosiy jarayonlarga tanqidiy munosabatni aks ettiradi.

Ikkinchi muhim mezon – qahramonlar tizimidir. O'zbek latifalarida ko'pincha Nasriddin Afandi singari milliy obrazlar yetakchilik qiladi. Bu obraz orqali xalq donoligi, topqirlik, adolatparvarlik va hozirjavoblik kabi fazilatlar ifodalanadi. Rus latifalarida esa Vovochka, chukcha kabi tipik va umumlashgan obrazlar keng uchraydi. Bunday qahramonlar ma'lum bir xarakter, stereotip yoki ijtimoiy holatni kulgi orqali ifodalashga xizmat qiladi.

Uchinchi mezon – yumorning tabiati va uslubidir. O'zbek latifalarida yumor ko'proq yumshoq, hayotiy va pand-nasihatga yo'naltirilgan bo'ladi. Ular tinglovchini faqat kuldirish bilan cheklanmay, uni o'ylashga ham undaydi. Rus latifalarida esa yumor odatda qisqa, o'tkir, keskin va ayrim

hollarda absurd elementlarga boy bo'ladi. Kutilmagan yakun bunday latifalarning asosiy ta'sir vositasidir.

To'rtinchi mezon – til va bayon uslubi hisoblanadi. O'zbek latifalarida milliy kolorit, odob-axloq me'yorlari, xalqona nutq va an'anaviy ifoda usuli kuchli seziladi. Rus latifalarida esa qisqalik, aniqlik, to'g'ridan-to'g'ri ifoda va tezkor komik ta'sir ustunlik qiladi. Shu sababli rus latifalari ko'pincha ixcham va ommaviy shaklda tarqaladi.

Beshinchi mezon – funksiyadir. Ayrim latifalar tarbiyaviy vazifani bajaradi, boshqalari ko'ngilochar xarakterga ega bo'ladi. Yana bir guruh latifalar esa tanqidiy funksiyani bajarib, jamiyatdagi muammolarni yumor orqali fosh etadi.

#### - Xulosa va takliflar (Conclusion /Recommendations)

O'zbek va rus latifalarini tasnif qilishda mavzu, qahramonlar tizimi, yumor tabiati, til va bayon uslubi hamda funksional vazifa asosiy mezonlar sifatida belgilanadi. Bu mezonlar har ikki xalq latifalarining milliy-madaniy xususiyatlarini aniqlash, ularning umumiy va farqli jihatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

Shu bois latifalar faqat kulgi manbai emas, balki xalqning ijtimoiy tafakkuri, madaniy qadriyatlarini, tanqidiy munosabati va hayotiy tajribasini aks ettiruvchi muhim og'zaki ijod namunalari sifatida baholanishi lozim.

#### ADABIYOTLAR

1. Соколов Ю.М. Русский фольклор. – М.: Учпедгиз, 1941. – С. 210 - 215.
2. Путилов Б.Н. Фольклор и народная культура. – СПб.: Наука, 1994. – С. 132 - 140.
3. Пропп В.Я. Проблемы комизма и смеха. – М.: Искусство, 1976. – С. 60 – 68
4. Дмитриев А.В. Социология юмора. – Москва, 1996; Выготский Л.С. Психология искусства. – СПб., 2000; Лук А.Н. Юмор, остроумие, творчество. – Москва, 1977; Симонов П.В., Ершов П.М. Темперамент, характер, личность. – Москва, 1984; Боре Ю.Б. Комическое. – Москва, 1970; Вулис А.З. Метаморфозы комического. – Москва, 1976; Лосев Л. Ф., Шестаков В.П. История эстетических категорий. – Москва, 1965; Стенник Ю.В. Русская сатира XVIII века. – Л., 1985; Чернявский М.Н. Комедия Аристофана и античные теории смеха // Аристофан. – Москва, 1956. – С. 81 - 108; Аверинцев С.С. Поэтика ранневизантийской литературы. – Москва., 1977; Лихачев Д.С., Панченко А.М., Поньрко Н.В. Смех в Древней Руси. – Л., 1984; Смех: истоки и функции. – СПб., 2002; Федь Н.М. Искусство комедии. – Москва, 1978;
5. Ахизер А.С. Россия: критика исторического опыта: В 3 т. Т.3. – Москва, 1991; Бородай Ю.М. Эротика- смерть-табу: трагедия человеческого сознания. – Москва, 1996; Вайль П., Генис А. 60-е: мир советского человека. – Москва, 2001; Гусев С.С., Тульчинский Г.Л. Проблема понимания в философии. – Москва, 1985; Терц А. Путешествие на Черную речку. – Москва, 1999.
6. Afandi haqida latifalar Latifa.uz / <https://latifa.uz/uz/tags/afandi/page/2>
7. Xolbutayev G'.O. (yozib oluvchi). Axborotchi: A.Axtamov (32 yosh). Toshkent shahri, 2022-yil 16-mart. (Dissertantning dala yozuvlari).